

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OBRAZLI IFODALARNING LINGVOPOETIK TABIATI VA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Shukurova Pokiza,

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi obrazli ifodalarning lingvopoetik tabiati hamda milliy-madaniy xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, jonlantirish va o‘xshatish kabi troplarning badiiy obraz yaratishdagi hamda madaniy ma’nomlarni ifodalashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Chog‘ishtirma tahlil asosida obrazli ifodalarning universal va milliy xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, ularda xalqning dunyoqarashi, an’analari, qadriyatlari va tarixiy tajribasining aks etishi yoritiladi. Tadqiqot natijalari obrazli ifodalar nafaqat estetik vosita, balki milliy madaniyat va etnik o‘zlikni saqlovchi hamda avlodlarga yetkazuvchi muhim lingvistik birlik ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** obrazli ifodalar, lingvopoetika, metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, jonlantirish, o‘xshatish, chog‘ishtirma tilshunoslik, milliy madaniyat, ingliz tili, o‘zbek tili.

**Annotation.** This article examines the linguopoetic nature and national-cultural characteristics of figurative expressions in the English and Uzbek languages. The study focuses on the role of tropes such as metaphor, metonymy, synecdoche, epithet, personification, and simile in creating artistic imagery and conveying cultural meanings. Through a comparative analysis, the research identifies both universal and culture-specific features of figurative language in the two languages. Particular attention is paid to the reflection of national worldview, traditions, values, and historical experience in figurative expressions. The findings demonstrate that figurative language serves not only as an aesthetic device but also as a means of preserving and transmitting cultural knowledge and ethnic identity.

**Keywords:** figurative expressions, linguopoetics, metaphor, metonymy, synecdoche, epithet, personification, simile, comparative linguistics, cultural identity, English language, Uzbek language.

**Аннотация.** В данной статье исследуются лингвопоэтическая природа и национально-культурные особенности образных выражений в английском и узбекском языках. Особое внимание уделяется роли таких тропов, как метафора, метонимия, синекдоха, эпитет, олицетворение и сравнение в создании художественной образности и передаче культурных смыслов. На основе сопоставительного анализа выявляются универсальные и национально-специфические черты образных выражений в двух языках. Также рассматривается отражение мировоззрения народа, традиций, ценностей и исторического опыта в образной системе языка. Результаты исследования показывают, что образные выражения являются не только эстетическим средством, но и важным инструментом сохранения и передачи культурного наследия и этнической идентичности.

**Ключевые слова:** образные выражения, лингвопоэтика, метафора, метонимия, синекдоха, эпитет, олицетворение, сравнение, сопоставительное языкознание, национальная культура, английский язык, узбекский язык.

**Kirish.** Til xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi va dunyoqarashini aks ettiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Tilning badiiy-estetik imkoniyatlari esa, avvalo, obrazli ifodalar orqali namoyon bo‘ladi. Obrazli ifodalar insonning borliq haqidagi tasavvurlarini, hissiy kechinmalarini va munosabatlarini ta’sirchan hamda estetik shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, jonlantirish va o‘xshatish kabi troplar tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda obrazli ifodalar faqat stilistik vosita sifatida emas, balki til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni ochib beruvchi lingvistik

hodisa sifatida ham o'rganilmoqda. Lingvopoetika badiiy matndagi til birliklarining estetik vazifalarini tadqiq etsa, lingvokulturologiya ushbu birliklar orqali xalqning milliy qadriyatlari va madaniy xususiyatlarining qanday aks etishini o'rganadi. Shu jihatdan obrazli ifodalar lingvopoetik va lingvomadaniy tahlil uchun boy material hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, har ikkala tilda ham obrazli ifodalardan keng foydalaniladi. Ular badiiy asarlarda obraz yaratish, muallif g'oyasini ifodalash, emotsional-ekspressiv ta'sir kuchini oshirish hamda milliy madaniyatga oid tushunchalarni yoritishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Biroq obrazli ifodalarning mazmuni, tuzilishi va qo'llanish xususiyatlarida har bir xalqning o'ziga xos dunyoqarashi, urf-odatlar, turmush tarzi va tarixiy tajribasi namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi ko'ngli tog'dek, bag'ri keng, boshi osmonga yetdi kabi obrazli birliklar xalqning ruhiyati va milliy tafakkurini aks ettirsa, ingliz tilidagi *heart of stone, a ray of hope, time flies* kabi ifodalar ingliz til egalari tomonidan shakllangan konseptual tasavvurlarni namoyon etadi. Bunday birliklarni qiyosiy jihatdan o'rganish ikki xalqning madaniyati va tafakkuridagi umumiy hamda o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning dolzarbligi obrazli ifodalarning lingvopoetik tabiati va milliy-madaniy xususiyatlarini ingliz hamda o'zbek tillari materiallari asosida chog'ishtirma jihatdan tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Globallashuv sharoitida turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar kengayib borayotgan bir paytda bunday tadqiqotlar madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirish, tarjima jarayonida milliy bo'yoqlarni saqlab qolish va badiiy matnlarning mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi obrazli ifodalarning lingvopoetik tabiatini ochib berish, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash hamda badiiy matndagi funksional vazifalarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari lingvopoetika, lingvokulturologiya, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalaridagi ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Obrazli ifodalar masalasi tilshunoslik, adabiyotshunoslik va kognitiv fanlarning turli yo'nalishlarida keng tadqiq qilingan. Antik davr olimlari, xususan, Aristotile metaforani badiiy nutqning eng muhim unsurlaridan biri sifatida baholagan va uni ma'no ko'chishining asosiy shakli deb ta'riflagan. Keyinchalik obrazlilik hodisasi stilistika va poetika doirasida chuqurroq o'rganila boshladi. XX asrda obrazli ifodalarni tadqiq etishda yangi yondashuvlar shakllandi. I. A. Richards metaforaning mazmuniy tuzilishini tahlil qilib, uning semantik mexanizmlarini izohlashga harakat qildi. Max Black esa interaksiya nazariyasini ilgari surib, metaforik ma'no ikki tushuncha o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga kelishini asoslab berdi. Kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi bilan George Lakoff va Mark Johnson metaforani inson tafakkurining konseptual modeli sifatida talqin qildilar. Ularning konseptual metafora nazariyasi obrazli ifodalarning faqat badiiy emas, balki kognitiv mohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Lingvokulturologik tadqiqotlarda V. A. Maslova, N. D. Arutyunova va V. N.

Teliya obrazli birliklarning milliy madaniyat, mentalitet va qadriyatlar bilan bog'liqligini yoritganlar. Ularning ilmiy qarashlarida til xalqning madaniy xotirasi sifatida talqin qilinadi va obrazli ifodalar ushbu madaniy tajribaning lingvistik aks etishi sifatida baholanadi. O'zbek tilshunosligida ham obrazli ifodalar masalasi turli aspektlarda tadqiq etilgan. Shavkat Safarov kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistika doirasida til birliklarining konseptual asoslarini o'rgangan. Nizomiddin Mahmudov badiiy nutqning semantik va uslubiy imkoniyatlarini tahlil qilgan bo'lsa, Baxodir Yo'ldoshev lingvopoetika yo'nalishida badiiy matndagi obrazlilik vositalarining estetik vazifalarini yoritgan. Ushbu tadqiqotlar obrazli ifodalarni o'rganish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi obrazli ifodalarning lingvopoetik tabiati hamda milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek badiiy adabiyoti namunalari, publitsistik matnlar hamda obrazli birliklar faol qo'llangan til materiallari tanlandi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy metod yordamida obrazli ifodalarning lingvistik xususiyatlari tavsiflandi. Chog'ishtirma tahlil metodi orqali ingliz va o'zbek tillaridagi metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, jonlantirish va o'xshatishlarning o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlandi. Semantik tahlil usuli obrazli birliklarning ma'no tuzilishi va ma'no ko'chish mexanizmlarini o'rganishga xizmat qildi. Lingvokulturologik yondashuv orqali esa obrazli ifodalarda aks etgan milliy qadriyatlar, madaniy stereotiplar va etnomadaniy xususiyatlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda induktiv va deduktiv tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv ingliz va o'zbek tillaridagi obrazli ifodalarning semantik, poetik va madaniy xususiyatlarini kompleks ravishda yoritish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillaridagi obrazli ifodalar semantik, lingvopoetik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, jonlantirish va o'xshatish kabi troplar badiiy tasvirning asosiy vositalari sifatida faol qo'llanadi. Ular matnning estetik ta'sirchanligini kuchaytirish, muallifning individual uslubini namoyon etish va milliy-madaniy mazmunni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Tahlil qilingan materiallarda metafora eng mahsuldor obrazli vositalardan biri ekanligi aniqlandi. Ingliz tilida *time flies*, *a sea of troubles*, *heart of stone* kabi metaforik birliklar abstrakt tushunchalarni obrazli tarzda ifodalashga xizmat qilsa, o'zbek tilida vaqt uchib o'tadi, dardlar ummoni, bag'ri tosh kabi ifodalar shunga yaqin semantik vazifani bajaradi. Bu holat ayrim konseptual metaforalarning universalligini ko'rsatadi. Metonimiya va sinekdoxa har ikki tilda axborotni ixcham va ta'sirchan tarzda yetkazishga xizmat qilishi kuzatildi. Ingliz tilidagi *The White House announced*, *Hollywood influences the world* kabi birliklarda joy nomi muassasa yoki insonlar guruhi ma'nosida qo'llanilgan. O'zbek tilida esa Toshkent qaror qabul qildi, Butun zal qarsak chaldi kabi misollar metonimik ko'chimning keng tarqalganligini ko'rsatadi. Sinekdoxada esa qism orqali butunni yoki

butun orqali qismni ifodalash holatlari har ikki tilda faol uchrashi aniqlandi. Epitetlarning qo'llanishida milliy-madaniy xususiyatlar yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi. O'zbek tilida musaffo osmon, oqko'ngil inson, mehribon ona kabi epitetlar xalqning ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilida golden opportunity, silent night, gentle breeze kabi epitetlar tasvirning emotsional-estetik ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu birliklar orqali har ikki xalqning tabiat, inson va jamiyat haqidagi tasavvurlari aks etadi. Jonlantirish vositalarining tahlili tabiat hodisalari va jonsiz predmetlarni tirik mavjudot sifatida tasvirlash har ikki til uchun xos ekanligini ko'rsatdi. Ingliz tilida the wind whispered, the stars smiled kabi misollar uchrasa, o'zbek tilida shamol kuyladi, quyosh kulib boqdi kabi birliklar keng qo'llanadi. Bunday obrazlar matnning poetikligini oshiradi va o'quvchining tasavvuriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'xshatishlar tahlili natijasida ingliz va o'zbek tillarida qiyoslash uchun qo'llanadigan obrazlar ayrim hollarda o'xshash, ayrim hollarda esa milliy madaniyat bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Masalan, ingliz tilidagi as brave as a lion va o'zbek tilidagi sherdek jasur ifodalari umumiy obrazga asoslangan bo'lsa, ayrim o'xshatishlarda milliy hayot tarzi va etnomadaniy tajriba aks etadi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillaridagi obrazli ifodalarning shakllanishi hamda qo'llanishida umumiy kognitiv mexanizmlar bilan bir qatorda milliy-madaniy omillar ham muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Har ikki tilda metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, jonlantirish va o'xshatish kabi troplarning faol qo'llanishi inson tafakkurining obrazli xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu holat kognitiv tilshunoslik vakillari tomonidan ilgari surilgan til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi haqidagi qarashlarni qo'llab-quvvatlaydi. Tahlillar davomida aniqlangan o'xshashliklar obrazli tafakkurning ayrim universal xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, vaqt, hissiyot, tabiat hodisalari va inson xarakteri bilan bog'liq ko'plab obrazlar har ikki tilda o'xshash konseptual asosda shakllangan. Bu esa insonning jismoniy va ijtimoiy tajribasi turli tillarda ma'lum darajada umumiy ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, obrazli ifodalarning mazmuniy tarkibi va tasvir vositalarini tanlashda madaniy muhitning ta'siri sezilarli darajada namoyon bo'ldi. O'zbek tilidagi obrazli birliklarda ko'pincha tabiat, qarindoshlik munosabatlari, mehr-oqibat, mehmondo'stlik va jamoaviylik kabi qadriyatlar aks etadi. Ingliz tilidagi obrazli ifodalarda esa individuallik, mustaqillik, harakat va amaliy faoliyat bilan bog'liq obrazlar nisbatan ko'proq uchrashi kuzatildi. Bu farqlar har ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi va madaniy qadriyatlar bilan izohlanadi. Lingvopoetik jihatdan obrazli ifodalar badiiy matnning estetik qimmatini oshirish, muallif uslubini shakllantirish va o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatishda muhim vosita ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, metafora va epitetlarning obraz yaratishdagi roli boshqa troplarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Metonimiya va sinekdoxa esa nutqning ixchamligi hamda mazmuniy zichligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki obrazli ifodalarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonida nafaqat lug'aviy ma'no, balki ularning milliy-

madaniy va emotsional mazmunini ham saqlab qolish zarur. Ayrim obrazlar universal xarakterga ega bo'lsa, ba'zilar muayyan xalqning madaniy tajribasi bilan bog'liq bo'lgani sababli ularni tarjima qilishda ekvivalent vositalarni tanlash muhim hisoblanadi.

**Xulosa.** Ingliz va o'zbek tillaridagi obrazli ifodalarning lingvopoetik tabiati va milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish ushbu birliklarning til tizimidagi muhim o'rnini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, jonlantirish va o'xshatish kabi troplar nafaqat badiiy tasvir vositalari, balki xalqning dunyoqarashi, madaniy tajribasi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvistik hodisalar ekanligini ko'rsatdi. Chog'ishtirma tahlil ingliz va o'zbek tillarida obrazli ifodalarning shakllanishi va qo'llanishida qator umumiy jihatlarni mavjudligini tasdiqladi. Har ikki tilda troplar matnning estetik qimmatini oshirish, muallif g'oyasini ta'sirchan ifodalash va o'quvchining hissiy-tafakkuriy qabuliga ta'sir ko'rsatish vazifalarini bajaradi. Shu bilan birga, obrazlarning mazmuniy asoslari va tasvir manbalarida milliy-madaniy o'ziga xosliklar yaqqol namoyon bo'lishi aniqlandi. Tadqiqot davomida o'zbek tilidagi obrazli ifodalarda mehr-oqibat, oilaviy qadriyatlar, tabiat va insoniy munosabatlarga oid tasvirlar ustunlik qilishi, ingliz tilida esa individuallik, faoliyat, harakat va shaxsiy tajriba bilan bog'liq obrazlarning nisbatan ko'proq uchrashi kuzatildi. Bu holat til va madaniyatning uzviy bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Lingvopoetik tahlil obrazli ifodalarning badiiy matnda obraz yaratish, estetik ta'sirni kuchaytirish hamda muallif uslubini shakllantirishdagi muhim rolini ko'rsatdi. Ayniqsa, metafora va epitetlar badiiy tasvirning asosiy vositalari sifatida ajralib turishi aniqlandi. Metonimiya va sinekdoxa esa nutqning ixchamligi va mazmuniy boyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. – 2nd ed. – New York: Oxford University Press, 2010. – 375 p.
3. Goatly A. *The Language of Metaphors*. – London: Routledge, 1997. – 360 p.
4. Leech G.N. *A Linguistic Guide to English Poetry*. – London: Longman, 1969. – 238 p.
5. Black M. *Models and Metaphors: Studies in Language and Philosophy*. – Ithaca: Cornell University Press, 1962. – 267 p.
6. Арутюнова Н.Д. *Язык и мир человека*. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
7. Маслова В.А. *Лингвокультурология*. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
8. Телия В.Н. *Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
9. Сафаров Ш. *Когнитив тилшунослик*. – Тошкент: Сангзор, 2006. – 220 б.
10. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика*. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 300 б.
11. Махмудов Н. *Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларида*. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2012. – 160 б.
12. Йўлдошев Б. *Бадий матн лингвопоэтикаси*. – Тошкент: Фан, 2008. – 152 б.
13. Нурмонов А. *Танланган асарлар. III жилд. Лингвистика назарияси*. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 312 б.
14. Раҳматуллаев Ш. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. – Тошкент: Университет, 2006. – 476 б.
15. Hakimov M. *O'zbek tilida matn pragmatikasi*. – Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.

16. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Фан, 2010. – 288 б.
17. Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School Publishing House, 1977. – 334 p.
18. Widdowson H.G. Stylistics and the Teaching of Literature. – London: Longman, 1975. – 117 p.
19. Simpson P. Stylistics: A Resource Book for Students. – London: Routledge, 2004. – 272 p.
20. Wales K. A Dictionary of Stylistics. – 3rd ed. – London: Routledge, 2011. – 480 p

